

OILAVIY AJRALISHLAR

Axadova Madinabonu Asror qizi

Talaba, 4-kurs, xususiy huquq fakulteti, Toshkent davlat yuridik universiteti,
Toshkent.

Settiyeva Sevara Faxriddin qizi

Talaba, 4-kurs, xususiy huquq fakulteti, Toshkent davlat yuridik universiteti,
Toshkent.

Rozmetova Asal Anvarzoda

Talaba, 4-kurs, xususiy huquq fakulteti, Toshkent davlat yuridik universiteti,
Toshkent.

Izoh: maqola ajralish kabi salbiy hodisaga bag'ishlangan. Bu oilaning jamiyatning asosiy bo'g'inining fojiali parchalanishi sifatida qabul qilinadi. Statistika ma'lumotlar va yurtimizdagi demografik vaziyat asosida zamonaviy oilalarda ajralishlarning asosiy xususiyatlari, sabablari, omillari va ba'zi oqibatlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: nikoh, ajralish, onalik kapitali, oila, statistika.

Abstract: the article is devoted to such a negative phenomenon as divorce. It is perceived as a tragic breakdown of the family, the main link of society. Based on statistical data and the demographic situation in our country, the main characteristics, causes, factors and some consequences of divorces in modern families are presented.

Key words: marriage, divorce, maternal capital, statistics.

«Inoq oilada beshik bo`shamas»

O`zbek xalq maqoli

Bir paytlar ajralishlar kamdan-kam uchraydigan va ko'pchilik tomonidan qoralangan bo'lsa, endi bu vaqt uzoq o'tmishda qoldi, har yili yuz minglab oilalar buziladi.

Joriy yilning birinchi choragi va o'tgan yilning shu davriga oid statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, munosabatlarni qonuniylashtirmoqchi bo'lganlar kamroq, nikohni buzmoqchi bo'lganlar esa ko'p. Nikohlar va ajralishlar soni o'rtasidagi farq yil sayin qisqarib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda fuqarolik nikohi modada. Ammo ko'p odamlar fuqarolik nikohi er-xotinlarga bir-biriga nisbatan deyarli hech qanday huquq va majburiyatlarni bermasligini hisobga olmaydilar. Nikoh ikki kishi uchun qafasda umrbod qamoq jazosi emas.

Mutaxassislarning fikricha, xozirda har ikkinchi nikoh buzilyabti, o'n yil oldin har uchinchi odam ajrashgan edi. O'sish juda katta - bir yarim baravar! Axir, bu baxtga umidlar uzilgan, begunoh azob chekayotgan baxtsiz bolalar.

Avvalom bor shuni yodda tutish lozimki, nikoh – shaxslararo va jinsiy munosabatlarni tartibga soluvchi eng qadimgi jamoat institutlaridan biri bo'lib, oila qurish maqsadida er-xotinlar o'rtasida jamiyat tomonidan tan olingan birlashma bo'lib, bu nikoh juftligining o'zaro huquqlari va majburiyatlarini keltirib chiqaradi.

Barchamiz eshitganmizki, o'tmishda odamlar juda chidamli bo'lib, turmushiga xos bo'lgan an'analarga va qadriyatlarga hurmat qilgan holda oilaviy munosabatlarni buzmaslikga harakat qilishgan. Ammo oxirgi yillarda o'zbek jamiyatida oila tushunchasi o'z qadrini birmuncha yoqotdi. Bunga sabab nima bo'lishi mumkin?

Bir necha umumiy sabablarni yozib o'tamiz. Nikohdan ajralish bo'yicha sudga da'vo qo'zg'atishda asosan er-xotin bir-birlarini tushunib yetmasliklari, oilaviy munosabatlarga qaynota-qaynonalarning aralashishi, er yoki xotinning uzoq yillar xorijiy mamlakatlarga ketib qolganligi, ba'zi hollarda esa xiyonat sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda bolali er-xotinlarning ajralishi juda keng tarqalgan bo'lib, kunma kun o'sib kelmoqda. Bu haqiqat nafaqat bolalarga, balki ota-onalarning o'zlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Veselin Georgiyev ta'kidlaganidek: «Ajralishdan keyin aybdorlar yo'q, qurbonlar bor». Shu iqtibosdan shuni tushunsak bo'ladiki oilaviy ajralishlar bolalarni ota yoki ona mehridan mahrum bo'lishiga sabab bo'ladi.

Bu esa hayoti davomida bolalarda psixologik buzilishlar paydo bo'lishi, shaxsiy munosabatlarga zarar yetkazish, aybdorlik tuyg'usini yaratish, salbiy xatti-harakatlarga taqlid qilish, giyohvand moddalarni iste'mol qilish, stressni qo'zg'atish yoki rivojlanishida regressiya natijalariga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib ajralish – bu o'ta og'ir holatlarda qo'llaniladigan chora, chunki ajralishgacha har-hil munozaralar bo'ladi, shu bosqichlardan so'ng ajralishga ariza berishadi. Afsuski, bizning jamiyatimizda odamlar oila qurishga shoshilishadi va ko'plab kulgili stereotiplar tomonidan boshqariladi. Masalan, ba'zi qizlar 25 yoshga to'lgunga qadar turmush qurmasam qari qiz bo'lib qolaman deb qo'rqishadi. Shu sababli, qizlar turmush qurishga, farzand ko'rishga shoshilishadi. Bu juda yoqimsiz oqibatlarga olib keladi. Bir so'z bilan aytganda ajralish – bu tirik turmush o'rtoqlar o'rtasidagi haqiqiy nikohni rasmiy ravishda bekor qilish. Ajrashish uchun arizani fuqarolik sudiga berish lozim. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 41 moddasiga ko'ra: «Agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat yo'q deb topsa, ularni nikohdan ajratadi».

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 40 moddasiga ko'ra, nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlar sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida da'vo ishlarini hal qilish uchun belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi. Sud ishning ko'rilishini keyinga qoldirib, er-xotinga yarashish uchun olti oygacha muhlat tayinlashga haqli. Sud er-xotinga yarashish uchun muhlat tayinlab, ishning ko'rilishini keyinga qoldirgan taqdirda, er-xotinning birga yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yarashtirish komissiyasini, agar ular birga yashamayotgan bo'lsa, har birining yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yarashtirish komissiyasini er-xotinni yarashtirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish uchun uch kundan kechiktirmasdan yozma ravishda xabardor qilishi kerak.

Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, sud tomonidan nikohdan ajratish haqidagi ishlarni ko'rishda har bitta oilani saqlab qolish choralarini ko'rish maqsadida taraflarga yarashishlari uchun muddat berish haqida ajrim chiqarilib,

ushbu ajrim ijro qilish uchun tuman mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi hamda tegishli mahalla fuqarolar yig'inlari raislariga yuboriladi. Umumlashtirib aytganda, yarashish komissiyasining asosiy maqsadlari bu fuqarolarning oilada va mahallalarda tinch-osoyishta, hamjihatlikda yashashiga ko'maklashish, oilaviy nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan holda keng targ'ib etish orqali ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga ko'maklashishdan iborat bo'ladi.

Bundan tashqari, mahalla fuqarolar yig'inlaridagi oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasining xulosasi sud uchun ishni mazmunan hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday bo'lsada, hanuzgacha tumandagi ayrim mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan taraflarni yarashtirish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish va bu ishlarning natijalari bo'yicha komissiyaning yakuniy xulosasini sudga taqdim etishda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Sud tomonidan mahallalarda bir necha bor tushuntirish ishlari olib borilganiga qaramasdan, sudning ajrimlari nomigagina muhokama qilinayotganligi, ushbu ajrimlar ortida oila va bolalarning keyingi taqdiri tursada, ular bo'yicha asossiz xulosa qilish va ayrim hollarda umumiy so'zlar bilan sudga javob qaytarish holatlari davom etmoqda.

E'tirof etish mumkinki, ajralish hamma uchun foydali bo'lgan holatlar mavjud. Bularga, birinchi navbatda, muammoli oilalarda yuzaga keladigan vaziyatlar kiradi. Masalan, agar turmush o'rtoqlardan biri spirtli ichimliklarni, giyohvand moddalarni suiiste'mol qilsa, turmush o'rtog'iga, bolalariga zo'ravonlik qilsa, kaltaklasa, ajralish nafaqat nikoh uchun javobgarlikni qonuniy ravishda olib tashlash, balki o'z va bolasining hayotini saqlab qoladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, bugungi kunda ajralishlar soni ko'payib bormoqda. 2022 yilning 26 iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika tomonidan chiqqan ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yilning birinchi yarmida O'zbekistonda 24 572 ajrashish uchun ariza bergan. Toshkent, ajralish bo'yicha yetakchi mintaqalarga aylandi. Ikkinchi o'rinda, Samarqand viloyati, uchinchi o'rinda Toshkent viloyati.

Agar o'tgan yillarga nazar solsak, bu statistikadagi sonlar yildan yilga oshaverishini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, nikohdan ajrashish haqida ariza bilan sudga murojaat etgan har bir oilani yarashtirish va uni saqlab qolish uchun eng avvalo ularning ota-onalari, mahalla fuqarolar yig'ini oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi, tuman mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi hamda mahalla faollari bilan hamkorlikda ish olib borish oilalarni saqlab qolishda katta samara berishi hech kimga sir emas. Oilaviy hayot, albatta, qiyinchiliklarning mavjudligini istisno qilmaydi, shu bois xam ularni birgalikda hal qilish mumkin va hatto kerakdir.

1. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.1. Toriya J. N. Musulmon huquqi bo'yicha nikoh va ajralish // Gumanitar va tabiiy fanlarning dolzarb muammolari. 2010. No 12. S. 304-308.

1.2. Katta izohli sotsiologik lug'at (Kollinz). 1-jild (A-O): trans. ingliz tilidan. Moskva: Veche, ACT, 1999 yil. Gershunskiy B.S. Filosofiya obrazovaniya. M: «Flinta», 1998, s. 29;

1.3. Oilaviy muammolarni hal qilishda yordam berish. [Elektron resurs]: Ajralish sabablari:

2. Elektron manbalar

2.1. <https://daryo.uz/2022/05/06/ozbekistonda-2022-yilning-birinchi-choragida-nikohdan-ajralish-holatlari-eng-kop-qayd-etilgan-hudud-malum-qilindi/>